

**MADANIY VA MA`RIFIY KO`RSATUVLARNING TARBIYAVIY
AHAMIYATI
(“MADANIYAT VA MA`RIFAT” HAMDA “MAHALLA”
TELEKANALLARI MISOLIDA)**

Madina Xodiyeva

*O`zbekiston jurnalistikasi va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
“Tele-radioeshittirish” yo`nalishi 2-bosqich magistranti*

Perxan Allambergenova

*O`zbekiston jurnalistikasi va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

Abstract. In today's era of globalization, mass media, like all industries, is developing with new looks and trends. Especially, the role and importance of cultural and educational shows in television content is increasing. Although modernity and non-traditionality are among the main features for popular programs with a high rating, we cannot deny that elements of nationalism and traditionalism are definitely present in any media product. In this regard, the article talks about author's shows on television, their unique traditional and national features. Here, nationality and traditionalism are studied not in opposition to each other, but in harmony with each other. How important are these features in today's modern media environment and how do they affect program quality and popularity? The article seeks answers to such questions. He studied the national characteristics of cultural and educational programs on the example of state TV channels.

Key word: "chaos" - chaotic, national brand, author's show, nationality, traditionalism, peculiarities, conversation.

Абстрактный. В сегодняшнюю эпоху глобализации средства массовой информации, как и все отрасли, развиваются с новыми взглядами и тенденциями. Особенno возрастаet роль и значение культурно-просветительских передач в телевизионном контенте. Хотя современность и нетрадиционность являются одними из главных черт популярных передач с высоким рейтингом, нельзя отрицать, что элементы национализма и традиционализма обязательно присутствуют в любом медиапродукте. В связи с этим в статье говорится об авторских шоу на телевидении, их неповторимых традиционных и национальных особенностях. Здесь национальность и традиционализм изучаются не в противопоставлении друг другу, а в гармонии друг с другом. Насколько важны эти функции в сегодняшней современной медиа-среде и как они влияют на

2023: International Conference on Research Identity,
Value and Ethics (USA)
<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

качество и популярность программ? Статья ищет ответы на такие вопросы. Изучал национальные особенности культурно-просветительских программ на примере государственных телеканалов.

Ключевые слова: «хаос» - хаотичность, национальный бренд, авторское шоу, народность, традиционализм, особенности, беседа.

Annotatsiya: Bugungi glaballashuv davrida barcha sohalar kabi OAV ham yangi ko`rinish va tendensiylar bilan rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, televideniye kontentida madaniy ma`rifiy ko`rsatuvlarning o`rni va ahamiyati ortmoqda. Zamonaviylik va noanaviylik reytingi baland, mashhur dasturlar uchun asosiy xususiyatlardan bo`lsa-da, har qanday media mahsulotda milliylik va an`anaviylik elementlari, albatta, mavjud bo`lishiniinkor eta olmaymiz. Shu jihatdan, maqolada televideniyyeda mualliflik ko`rsatuvlari, ularning o`ziga xos an`anaviy va milliy xususiyatlari haqida so`z yuritiladi. Bu yerda milliylik va an`anaviylik bir-biriga qarama-qarshi emas, balki o`zaro uyg`un holatda o`rganilgan. Bu xususiyatlar bugungi zamonaviy media muhitda qanchalik muhim va ularning dastur sifati hamda ommabopligi ta`siri qanday? Maqolada shu kabi savollarga javob izlangan. Madaniy va ma`rifiy ko`rsatuvlarning milliylik xususiyatlarini davlat telekanallari misolida o`rgangan.

Kalit so`zlar: “xaos, – tartibsiz, milliy brend, mualliflik ko`rsatuvi, milliylik, an`anaviylik, o`ziga xosliklar, suhbat.

Kirish. Jurnalistika shiddat bilan rivojlanib borayotgan, zamonaviy axborot texnologiyalari o`zining yuksak cho`qqisiga erishayotgan, globallashuv dunyoning eng chekka burchaklarigacha kirib borayotgan davrda jurnalistik mahsulot, materiallarga qo`yilayotgan talablar ham ortib bormoqda. OAV faoliyatida fuqorolik jamiyati, demokratiyaning yaqqol namoyon bo`lishi kuzatilyapti. Har bir OAV turi o`ziga xos yo`nalishda, uslubda takomillashib bormoqda. Hattoki, auditoriyaning o`zi jurnalistlar bajaradigan vazifa – axborot tarqatish funksiyasini mustaqil bajarayapti. Bu esa fuqorolik jurnalistikasining yangi bosqichida rivoj toptayotganidan dalolatdir. Axborot oqimining rivoj topayotganidan dalolatdir. Axborot oqimimg shiddati, yolg`on, soxta, haqqoniy, holis axborotlarning umumiy, yaxlit va “xaos” (tartibsiz) ko`rinishda uzatilayotgan jurnalistlar oldiga yanada kattaroq talablarni qo`ymoqda. Professional jurnalist ongi, tafakkuri, tasavvuri va taassuroti mahsuli bo`lgan materiallarga ehtiyoj ortdi.

OAV turlari orasida eng ta`sirli va nisbatan tezkor hamda ko`p auditoriyani qamrab olgan televideniyyeda cheksiz imkoniyatlar bor. Bugungi davr telejurnalistlarga o`zlarining ijodiy mahsullari bo`lgan mualliflik ko`rsatuvlari orqali jamiyatning barcha muammo va masalalarini o`rganishi, ularni tahlil qilishi yoki auditoriyaga faqat axborot yetkazish bilan cheklanmasdan, ko`nilochar, ma`naviy-ma`rivi dasturlar tayyorlash talabini qo`ymoqda. Natijada, yangi ko`rsatuvlar vujudga kelib, ularning tuzalishi, tarkibi, yaratilish texnologiyalari zamonaviy tendensiyalarni o`zida aks ettirmoqda. Bu esa ularni tadqiq va tahlil qilish masalaning dolzarbliji ko`rsatadi.

Televidenie dasturlarida ham dastlabki yillarda ma`naviyat, milliy urf-odatlar, qadriyatlar mavzusida qator ko`rsatuvlar tashkil etildi.

2023: International Conference on Research Identity, Value and Ethics (USA)

<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

“Madaniyat va ma’rifat” kanali aynan auditoriya ma’naviyatini yuksal tirish uchun ochilgan deyishimiz mumkin. Bu kanalda efirga uzatiladigan har bir kursatuv tomoshabinga ma’naviy ta’sir qilish uchun xizmat qiladi. Mana bir misol: kanalda milliz qadriyatlar ufurib turgan ko`rsatuvalar talaygina shu jumladan misol qilib aztadigan bo`lsam, “Bashariyat siymolari”, “Milliy ta’lim”, Baxshiyona”, “Ma’rifiy suhbatlar”, “Milliy brend” kabi ko`plab teledasturlarni uchratishimiz mumkin. Bu kabi ko`rsatuvalar insonning manaviyatini

yuksaltirishda va bilim ko`nikmalarini rivojlanishiga turtki bo`ladi. Bundan tashqari, hozirgi kunda yoshlaring bilim olishi va yetuk shaxs bo`lib yetishishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Televideniya ham ma’naviyatni ma’rifat targ’ib qiladigan maskanlardan biri desak, adashmagan bo’lamiz.

Madaniyatning qay bir yo`nalishi, san`atning qay bir sohasi bo`lmisin, ko`rsatuvlarning sifati hamisha ko`ngildagidek bo`ladi. Bu kanalda avvolo til madaniyatiga, libosga ko`rsatuval olib borishdan tortib ko`rsatuvgaga jalg etiladigan mutaxassislargacha jiddiy e`tibor beriladi. Agar biz yoshlarimizning ma`naviyati yuksak, ma`rifati zamon talabi darajasida bo`lishini istasak, farzandlarimizni ko`proq milliylikni, madaniyatni o`rgatishimiz kerak bu kanal esa shu kabi ko`rsatuvalari bilan yoshlar ongiga ham ijobiy iz qoldiradi.

“Madaniyat va ma’rifat” telekanalining jamiyatimiz ravnaqida alohida o`rni bor. O’tgan yillar mobaynida o`z tomoshabinni topdi. Televidenieda madaniyat va ma’rifat masalalarini tezroq, kengroq, bemalolroq, batafsilroq yoritish imkonini bo`ldi. Ayrim adabiyot va sa`nat asarlari alohida va chuqur tahlil etila boshladi. Dolzarb madaniy-ma’rifiy mavzularda teledarslar ham o`tildi. Faqatgina milliy madaniyatimiz va ma`rifatimiz emas, jahon madaniyati va ma`rifatining buyuk siymolari hayoti va ijodiga doir, dunyoga mashhur asarlar tahliliga bag`ishlangan ko`rsatuvalar tayyorlandi. Televidenie orqali chiqish qiladigan yizolilar qamrovi sezilarli darajada kengaydi. Ochig`i, bular faqat shu kanalninggina emas, umuman, televideniening yutuqlari sifatida baholanishi – lozim.

“Madaniyat va ma’rifat” telekanali ishini yanada yaxshilash uchun, bizningcha, elimizning bir paytlar juda mashhur bo`lgan, bugun esa ekranlarda ko`rinmay qolgan keksa avlod vakillarini, mintaqalarimizda faol ijod qilayotganliklari ijodkorlarni va mumtoz ijro aytadigan sa`natkorlarni mashhur shoirlarni she`r o`qib berishi asosidagi ko`rsatuvalari juda o`rinli va tomoshabinlarni bunday ko`rsatuvalarni ko`rib maroq olishmoqda.

Televidenie jamiyatda milliy ehtiyoj kasb etgan dolzarb muammolarni birlashtiradi. Turmush va butun hayotimiz davomida zarur bo`ladigan faolligimizni oshirish uchun xizmat qiladi, zeriktirmaydi. Dunyoqarashimizni kengaytiradi, xarakterimiz va odatimizni o`zgartirishga yordam beradi; e`tiborimizni dolzarb ijtimoiy muammolar muhokamasiga tortadi. Yana bir eng muhim jihatlari shundan iboratki, u nuqtai nazarimizni shakillantirishga xizmat qiladi. Ko`p millionli auditoriya bilan aloqa bog’laydi va bu aloqa ijtimoiy ongimizga ta’sir etib, davr bilan axloqiy his tuyg’uni uyg’otadi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, ijtimoiy minbar vazifasini o’tab, xalqqa

2023: International Conference on Research Identity,
Value and Ethics (USA)

<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

hisobot berish, o'z siyosatini tushuntirish va nihoyat, o'z tarafдорлari safini kengaytirish hamda ularni zarur jihatlar tomon yo'naltirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduxoliqov I, Karimov A. Telejurnalistika asoslari (Ma'ruza matnlari) Toshkent 2005
2. Umirov S., Do'stmuhammedov X., Abduholiqov I., Jo'rayev X., Karimov A., Mo'minova F., Matyoqubov A. "Masa-media tipologiyasi, texnikasi va iqtisodi". Toshkent 2010
3. Karimov A. Rekreativ chiqishlarning zamonaviy xususiyatlari, "Zamonaviy telejurnalistikaning taraqqiyot tendentsiyalari: mahorat, tajriba, ixtisoslashuv (ilmiy maqolalar to'plami)". -T.:2015.
4. Do'stmuhammad X. Jurnalist bo`lmoqchimisiz? T. "Yangi asr avlod'i". 2001 йил
5. Mamadalieva Sh. Zamonaviy mass medianing yangi tendentsiyalari va dolzarb muammolari (ilmiy maqolalar to'plami). T.:2014.
6. Sohibov A. "Ommaviy axborot vositalari-ma'naviy-axlohiy tarbiya minbari" mavzusidagi maqolasi.
7. "Madaniyat va ma'rifat" telekanali
8. www.Ziyo.uz sayti